

**IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
TIZIMIDAGI XORIJIY TILLARGA IXTISOSLASHTIRILGAN
MAKTABIGA NOMZODLARNI QABUL IMTIHONI MATERIALLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

5-7- SINFLAR 2026/2027-o'quv yili

Mazkur spetsifikatsiya 5-7-sinflarga qabul qilinadigan o'quvchilarni imtihondan o'tkazish, sinovida foydalaniladigan qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini va o'tkazilish tartibiga qo'yilgan talablarni belgilaydi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning maktabga tayyorgarlik bo'yicha nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma va qobiliyatlarini kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida maktabga qabul qilinadigan qarorlar valid (asoslangan) bo'lishini ta'minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta'minlanadi.

II. Me'yoriy asoslar

1. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-maydagi "Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlariga o'quvchilarni saralab olish hamda qabul qilish tartibiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 214-son Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab -internatiga o'quvchilarni saralab olish va qabul qilish tartibi to'g'risidagi Nizom.

III. Baholash qamrovi

Suhbat savol-javob shaklida o'tkaziladi: har bir variantda 5 tadan savol berilib, har bir o'quvchiga 30 daqiqa vaqt ajratiladi.

Suhbat savollarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

<i>Mazmun soha</i>	<i>Konstrukt</i>	<i>Savollar soni</i>
<i>Hisoblash aniqligi va algoritmik ko'nikmalar</i>	-amallar tartibi, matematik qoidalar, formulalar va hisoblash algoritmlarini to'g'ri qo'llash hamda yozma va og'zaki izohlash;	1
<i>Mantiqiy fikrlash va muammoni hal qilish; Visual</i>	- mantiqiy tahlil, gipoteza tuzish; - masala shartidagi muammoni aniqlash;	1

<i>ma'lumotlar, grafiklar va geometrik tahlil</i>	- mantiqiy zanjir va yechim strategiyasini to'g'ri tanlash va tuzish; - grafik, jadval, diagramma va geometrik shakllardagi ma'lumotlarni tahlil qilish; - ma'lumotlarni bir ko'rinishdan boshqa ko'rinishga o'tkazish; - yechim, tahlil va xulosalarni yozma bayon qilish hamda yozganlarini og'zaki asoslab berish.	
<i>Leksik tushunish va faktik tafsilotlar (Literal Comprehension)</i>	- matndagi aniq ko'rsatilgan ma'lumotlar, faktik tafsilotlar va kontekstual leksik birliklarni tahlil qilish;	1
<i>Matnni tushunish (Reading Comprehension)</i>	- asosiy g'oya, kontekstual lug'at, detallar va mantiqiy xulosalar (inferencing);	1
<i>Ijtimoiy (Yumshoq) ko'nikmalar / Social (Soft) Skills</i>	- emotsional intellekt, muloqot odobi, jamoada ishlash va mas'uliyat.	1

IV. Suhbat jarayonining o'tkazilish tartibi va baholash mezonlari

1. Talabgorlar 5 ta savoldan iborat biletni tanlaydi.
2. Biletni tanlagach, tayyorlanish uchun alohida vaqt berilmaydi.
3. Har bir o'quvchi savollarga javob berishi uchun 30 daqiqa vaqt beriladi. Zarur bo'lsa, qo'shimcha savollar berilishi mumkin.
4. Har bir topshiriq 5 ballik tizimda baholanadi. Nomzodlarning umumiy 25 ball bilan baholanadi.

Suhbat jarayonida nomzodlarning ijtimoiy-hissiy rivojlanish darajasini nutqni tinglash, tushunish, so'zlash va muloqot qilish, muammoli yechimlarda qaror qabul qilish ko'nikmalari bilan baholanadi.

V. Baholash rubrikasi

Indikator / baholash mezon	5 ball — yuqori	4 ball — yaxshi	3 ball — oʻrta	2 ball — qoniqarli	1 ball — past
1. Hisoblash aniqligi va algoritmik koʻnikmalar	Topshiriqni toʻliq va toʻgʻri bajaradi: kerakli amal, qoida yoki formulani aniqlaydi; amallar tartibini belgilaydi; hisoblashlarni xatosiz bajaradi; toʻgʻri javobni yozadi; yechim yoʻlini ogʻzaki toʻliq izohlaydi.	Yechish usuli va hisoblash algoritmini toʻgʻri tanlaydi; yechimning barcha muhim bosqichlarini bajaradi, biroq bitta arifmetik yoki texnik xatoga yoʻl qoʻyadi. Xato yechim usulini oʻzgartirmaydi. Qolgan hisoblashlarni oʻzi topgan natijaga muvofiq toʻgʻri davom ettiradi va yechim yoʻlini ogʻzaki izohlaydi.	Yechish usulini toʻgʻri tanlaydi va yechimning muhim qismini bajaradi, biroq matematik qoida yoki formulani qoʻllashda bitta mazmuniy xatoga yoʻl qoʻyadi yoxud yechimning bitta muhim bosqichini bajarmaydi. Shu sababli toʻliq va toʻgʻri javobni topmaydi. Yechimning asosiy gʻoyasini ogʻzaki tushuntiradi.	Masalaga mos amal, qoida yoki formulani aniqlaydi va ayrim hisoblashlarni toʻgʻri bajaradi, biroq toʻliq yechim algoritmini tuzmaydi yoki yechimda bir nechta mazmuniy xatoga yoʻl qoʻyadi. Toʻgʻri javobga olib boruvchi izchil yechimni koʻrsatmaydi.	Masalaga tegishli formula, qoida yoki hisoblash usulini yozadi yoxud bitta toʻgʻri amalni bajaradi, biroq yechim usulini rivojlantirmaydi va masalani yechishda sezilarli natijaga erishmaydi.
2. Mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish va vizual maʼlumotlar ni tahlil qilish	Topshiriqni toʻliq va toʻgʻri bajaradi: muammoni aniqlaydi; grafik, jadval, diagramma yoki geometrik shakldagi maʼlumotlarni toʻgʻri tahlil qiladi; yechim strategiyasini tanlaydi; izchil mantiqiy zanjir tuzadi; maʼlumotlarni zarur koʻrinishga oʻtkazadi; asoslangan xulosa chiqaradi hamda yozganlarini ogʻzaki toʻliq asoslaydi.	Muammoni, kerakli maʼlumotlarni va yechim strategiyasini toʻgʻri aniqlaydi; mantiqiy zanjirni toʻliq tuzadi, biroq hisoblashda, maʼlumotni bir koʻrinishdan boshqasiga oʻtkazishda yoki yozma bayonda bitta texnik xatoga yoʻl qoʻyadi. Xato yechim strategiyasini va asosiy mantiqiy fikrni buzmaydi. Yozganlarini ogʻzaki asoslaydi.	Muammoni va asosiy bogʻlanishlarni toʻgʻri aniqlaydi; maqsadga muvofiq yechim strategiyasini tanlaydi, biroq mantiqiy zanjirdagi bitta muhim bosqichni bajarmaydi yoki maʼlumotlardan birini mazmunan notoʻgʻri talqin qiladi. Shu sababli chiqargan xulosasi notoʻgʻri, toʻliq emas yoki yetarlicha asoslanmagan boʻladi.	Masala shartidagi kerakli maʼlumotlarni aniqlaydi; grafik, jadval, diagramma yoki geometrik shakldan ayrim maʼlumotlarni toʻgʻri oladi va kamida bitta toʻgʻri bogʻlanishni oʻrnatadi. Biroq toʻliq yechim strategiyasini tanlamaydi va izchil mantiqiy zanjir tuzmaydi.	Masala shartidagi ayrim maʼlumotlarni qayd etadi yoki bitta toʻgʻri kuzatuvni bildiradi, biroq muammoni hal qilishga olib keladigan yechim strategiyasini taklif qilmaydi.

3. Leksik tushunish va faktik tafsilotlar (Literal Comprehension)	Matn yoki gap bo'yicha elementlarning barchasini aniqlaydi: asosiy aniq ma'lumot; birinchi faktik tafsilot; ikkinchi faktik tafsilot; kontekstdagi so'z/ibora ma'nosi; berilgan ma'lumotga mos aniq javob. Barchasini ingliz tilidagi matn asosida mustaqil bajaradi.	Matnning aniq mazmunini tushunadi, ammo bitta faktik tafsilot yoki leksik birlikda xatoga yo'l qo'yadi.	Asosiy ma'lumotni tushunadi, biroq ayrim faktik tafsilotlar yoki kontekstual so'z ma'nosini aniqlashda xato qiladi.	Matndagi ayrim ochiq ma'lumotlarni topadi, ammo faktlar va kontekstual leksik birliklarni to'liq tushunmaydi.	Matndagi aniq ma'lumotlar, faktik tafsilotlar va asosiy leksik birliklarni ajratishda qiynaladi.
4. Matnni tushunish (Reading Comprehension)	Matnning asosiy g'oyasini aniqlaydi; kontekstdagi so'z/ibora ma'nosini tushuntiradi; muhim detalni aniqlaydi; ma'lumotlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishni aniqlaydi; matn asosida mantiqiy xulosa chiqaradi.	Matnning umumiy mazmunini va asosiy g'oyasini tushunadi, biroq bitta detal, leksik birlik yoki xulosada kamchilik mavjud.	Matnning umumiy mazmunini tushunadi, lekin asosiy g'oya, detal yoki mantiqiy xulosalardan ayrimlarini aniqlashda xato qiladi.	Matndan ayrim ma'lumotlarni tushunadi, biroq asosiy g'oya va mantiqiy xulosani mustaqil aniqlay olmaydi.	Matnning asosiy mazmunini anglash, muhim detal yoki xulosani aniqlashda qiynaladi.
5. Ijtimoiy (yumshoq) ko'nikmalar / Social (Soft) Skills	Berilgan vaziyatda elementning barchasini namoyon etadi: o'zining yoki boshqalarning hissiy holatini to'g'ri aniqlaydi; vaziyatga mos hurmatli muloqot usulini tanlaydi; hamkorlikka mos harakatni belgilaydi; mas'uliyatli qaror qabul qiladi; tanlagan qarorining sababini tushuntiradi.	Vaziyatga mos qarorni tanlaydi, biroq bitta jihatni, masalan, hissiyot, hamkorlik, mas'uliyat qaror yoki asoslashni to'liq ifodalay olmaydi.	Vaziyatni umumiy tushunadi va maqbul harakatni tanlaydi, biroq qarorini yetarlicha asoslay olmaydi yoki ayrim ijtimoiy jihatlarni hisobga olmaydi.	Vaziyatning ayrim jihatlarini tushunadi, biroq muloqot, hamkorlik yoki mas'uliyat qarorga mos yechimni to'liq tanlay olmaydi.	Vaziyatni baholash va unga mos ijtimoiy xatti-harakat yoki qarorni tanlashda qiynaladi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

Matematika

1. Repyova I. V: “Matematika” darslik 2-4-sinf Toshkent : “Novda” - 2023y Qo‘shimcha adabiyot:
2. Mirzaahmedov M.A: “Matematikadan testlar to‘plami” 1-4-sinf Toshkent: ZUKKO KITOBXON nashiriyot-matbaa uyi, 2024 y.
3. AHA Matematika 6-sinf I va II qism darslik va mashq daftari E.Ch. Chun Ming “Novda” 2024.
4. AHA Matematika 6-sinf I va II qism darslik va mashq daftari E.Ch. Chun Ming “Novda” 2024.

Ingliz tili

1. Kauffman, D., Buckley, E., and Bullock, L. (2010). Oxford Picture Dictionary for the Content Areas. Oxford University Press.
2. Reed, S. and Bentley, K. (2021). Guess What! Student’s Book – 1. Cambridge University Press.
3. Reed, S. and Bentley, K. (2021). Guess What! Student’s Book – 2. Cambridge University Press.
4. Lloyd, S. and Wernham, S. (2013). Jolly Phonics Pupil Book 2. Jolly Learning Ltd.
5. Puchta, H., Gerngross, G., and Lewis-Jones, P. (2014). Super Minds – Level 1. Cambridge University Press.
6. Simmons, N. (2014). Family and Friends 2-5 (2nd ed.). Oxford University Press.
7. DK Publishing. (2020). English for Everyone Junior: Beginner’s Practice Book. DK Children.
8. McCarthy, M. and O’Dell, F. (2017). English Vocabulary in Use: Elementary. Cambridge University Press.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, suhbat topshiriqlari mazmuni quyida tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyillar va yondashuvlar bilan moslashtiriladi. Nomzodlar mazkur adabiyotlar mazmunini yodlash orqali yuqori ball olishni kutmasliklari kerak. Tavsiya etilgan adabiyotlar malaka sinovlariga tayyorgarlik ko‘rish manbayi sifatida xizmat qiladi.

* Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi direktor o'rinbosari



F.P. Atamuratova